



## XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI K E N G A S H I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

2021 - yil 31 - dekabr

VI-50-102-7-103-K/21

Samarqand tuman hokimligi

### **Samarqand viloyati Samarqand tumanining 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonuniga hamda Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining "Samarqand viloyati 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2022 yil uchun Samarqand tumani byudjetini qabul qilish bo'yicha Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining navbatdan tashqari oltinchi chaqiriq elliginchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Samarqand viloyati Xalq deputatlari Kengashining "Samarqand viloyati 2022 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga asosan Samarqand tumani byudjetiga Samarqand viloyati byudjetidan ajratilgan:

tartibga soluvchi byudjetlararo transfert 50 178 052,0 ming so'm miqdorida tasdiqlanganligi, bunda tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozining ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunida belgilab qo'yilganligi;

tuman byudjetining aylanma kassa mablag'i 1 493 000,0 ming so'm miqdorda belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashi qaroriga asosan 2022 yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman byudjetiga to'liqligicha o'tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo'yicha deklarasiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, bundan syement xom ashyosi va syement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno;

aylanmadan soliq;

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa to'lovlar viloyatning viloyat byudjeti hamda tuman mahalliy byudjeti o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushumlarning (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadlari bo'yicha deklarasiyaga asosan to'lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan daromad solig'idan tashqari) 15 foiz miqdorda tuman byudjetiga;

foyda solig'idan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro'xatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) 10 foiz miqdorda tuman byudjetiga;

benzin, dizel yoqilg'isi va gazning chakana sotuvi uchun aksiz solig'idan 10 foiz miqdorda tuman byudjetiga;

yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig'idan 10 foiz miqdorda tuman byudjetiga;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'idan 10 foiz miqdorda tuman byudjetiga;

ayrim tovarlarni chakana sotish huquqini berish uchun yig'im, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig'imlar (bojxona yig'imlaridan tashqari) hamda xarid qilganlik uchun ichki ishlar organlarida ro'yxatdan o'tkazish vaqtida avtotransport egalari (foydalanuvchilari) tomonidan to'lanadigan yig'imlardan solig'idan 10 foiz

miqdorda tuman byudjetiga;

mobil aloqa xizmati va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig'idan tushumlar tegishli ravishda 2021 yil 1 iyul holatiga ko'ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o'tkazib berilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2022 yil uchun tuman byudjeti daromadlar prognoz ko'rsatkichlari **1- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman byudjetidan 2022 yilgi hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2- ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 1 687 255,0 ming so'm miqdorida belgilansin.

6. Tuman hokimligi:

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o'z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida moliyaviy hisobotlarni hamda boshqa tegishli ma'lumotlarni joylashtirish;

byudjet daromadlari va xarajatlarining ko'rsatkichlarini bajarilishini ta'minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish, byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat'iy nazoratni o'rnatishi uchun tuman Kengashiga doimiy ravishda ma'lumot kiritib boorish;

O'zbekiston Respublikasining "2022 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi Qonunida belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta'minlasin.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari (B.Xonkeldiyev)ga mazkur qarorni "Gulobod tongi" gazetasida rasmiy e'lon qilish, rasmiy e'lon qilinganidan keyin bir kun ichida hokimlikning rasmiy veb-sayti (<http://gulobod.uz>)ga joylash vazifasi yuklatilsin.

8. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

9. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari Samarqand tuman Kengashining 2021 yil 27 yanvardagi "Samarqand tumanining 2021 yil mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi 117/1-20-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashi Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (B.Xusanov) va tuman hokining birinchi o'rinbosari (F.Ganiyev) zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash Raisi**



**N.Mavlonov**

Халқ депутатлари Самарқанд  
туман Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-50-102-7-103-К/21-сон қарорига  
1-илова

## 2022 yil uchun tuman byudjeti daromadlar prognoz ko'rsatkichlari

ming.so'm

№	Daromad turi	Jami
	<b>JAMI DAROMADLAR</b>	<b>128 670 990</b>
<b>I</b>	<b>Rag'batlantiruvchi (Stimuliruyuvchi) daromad</b>	<b>17 498 850</b>
1	<b>Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i</b>	79 803 000
	ajratma meyori	<b>15</b>
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	11 970 450
2	<b>Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i</b>	55 284 000
	ajratma meyori	<b>10</b>
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	5 528 400
<b>II</b>	<b>Tuman va shaharlar byudjetiga to'liq o'tkaziladi</b>	<b>44 504 000</b>
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	11 620 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	7 033 000
5	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2 360 000
6	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 241 000
7	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	21 250 000
<b>III</b>	<b>Viloyat va tuman (shahar)lar byudjetlari o'rtasida taqsimlanadigan daromadlar</b>	<b>24 994 140</b>
8	<b>Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq</b>	5 150 400
	ajratma meyori	<b>10</b>
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	515 040
9	<b>Yuridik shaxslar yer solig'i</b>	14 814 000
	ajratma meyori	<b>10</b>
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	1 481 400
10	<b>Yakuniy iste'molchilarga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i</b>	17 849 000
	ajratma meyori	<b>10</b>
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	1 784 900

	<b>Korxonalar aylanmasidan soliq</b>	17 206 000
11	ajratma meyori	<b>100</b>
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	17 206 000
	<b>Yig'imlar</b>	38 161 000
12	ajratma meyori	<b>10</b>
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	3 816 100
	<b>Davlat foydasiga musodara qilingan mol-mulkni sotishdan tushgan tushum</b>	202 000
13	ajratma meyori	
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	0
	<b>Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari</b>	190 700
14	ajratma meyori	<b>100</b>
	Tuman (shahar) mahalliy byudjetiga	190 700
<b>IV</b>	<b>Taqsimlanuvchi daromadlar (formula bo'yicha)</b>	<b>41 674 000</b>
	<i>Aholi soni (ming kishi)</i>	258
19	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	15 773 000
20	Mobil aloqa xizmati	8 986 000
21	Sigaret uchun aksiz solig'i	16 915 000
<b>V</b>	<b>JAMI XARAJATLAR</b>	<b>178 849 042</b>
<b>VI</b>	<b>TRANSFERTLAR</b>	<b>50 178 052</b>

Халқ депутатлари Самарқанд  
туман Кенгашининг  
2021 йил 31 декабрдаги  
VI-50-102-7-103-К/21-сон қарорига  
2-илова

**Tuman byudjetidan 2022 yilgi hududiy byudjet mablag'larini  
taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan  
miqdorlari**  
ming.so'm

<b>№</b>	<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2022 yil</b>
<b>Samarqand tuman bo'yicha xarajatlari miqdori, Jami</b>		<b>178 849 042,0</b>
1.	Maktabgacha ta'lim bo'limi	16 831 745,0
2.	Xalq ta'limi bo'limi	7 979 518,0
3.	Tibbiyot birlashmasi	75 375 016,0
4.	Madaniyat bo'limi	3 623 407,0
5.	Jismoniy tarbiya va sport bo'limi	5 009 824,0
6.	Bandlikka ko'maklashish markazi	684 633,0
7.	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo'limi	1 066 119,0
8.	Irrigasiya bo'limi	540 440,0
9.	Qishloq xo'jaligi bo'limi	1 208 746,0
10.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi tumandagi muassasalari	637 453,0
11.	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	181 500,0
12.	Moliya bo'limi	797 169,0
13.	Hokimiyat	64 282 061,0
14.	Maxalla va oilani kullab-kuvvatlash bo'limi	631 411,0